



F.Sh.Xudoyberdiyev

*“Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedrasi dotsenti
Muxamadov Qamoriddin Muxtor o’g’li, Bobojonov Saidjon O’tkirovich*

Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish magistrleri

*Mirzomurotov Maksudjon Farhod o’g’li
“Yer kadastro va yerdan foydalanish” ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi*

XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA YAYLOVLAR HUDUDINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada yaylovlar hududini tashkil etish yuzasidan xorij tajribasi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, tajribalarni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyati haqida ilmiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Yaylovlardan foydalanish, chorvachilik, yaylovlarni rivojlantirish, hudud, cho'l va yarim cho'l, Yaylovlar to'g'risidagi qonun, yer fondi, O'rta Osiyo.

Kirish. Chorvachilik dunyoning ko'plab mamlakatlarida qishloq xo'jaligining muhim sohasi bo'lib, ulkan tabiiy resurslardan foydalanadi va ularning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yaylovlar dunyo yer resurslarining 23 foizini tashkil qiladi, ammo ulardan noratsional foydalanishning ko'payishi bilan cho'llashish kuchayadi. Bundan tashqari 30 million kv metrga xavf soladi [9].

Markaziy Osiyoda yaylovlardan foydalanish munosabatlari “Yaylovlar to'g'risida”gi qonun bilan tartibga solinadi: 2009 yilda Qirg'izistonda [1], Tojikistonda 2013 yilda [2], 2015 yilda Turkmanistonda [3], Qozog'istonda - 2017 [4]. O'zbekistonda 2018 yilda [5] “Yaylovlar to'g'risida” qonun ishlab chiqilgan. Qabul qilingan qonunlarning asosiy maqsadi yaylovlardan foydalanish va ularni himoya qilish, ulardan foydalanish tartibini ishlab chiqish va buzilishning oldini olishdir.

Yaylovlar - bu tabiiy o'simliklarga ega bo'lgan yerlar, ular chorva uchun ozuqa sifatida ishlatiladi. Yaylovlar milliy boylikdir va davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Yaylovlar cho'l, yarim cho'l, tog 'oldi, tog' va pasttekisli, sug'oriladigan va sug'orilmaydigan yaylovlarga bo'lingan. Tog 'yaylovlari mavsumiydir va faqat yilning ma'lum vaqtlarida ishlatiladi. Yaylov chorva mollariga mo'ljallangan [5].

O'zbekistondagi cho'l va yarim cho'l tabiiy yaylovları 32 million hektar maydonni egallaydi. Shulardan Qorako'l yaylovlarining maydoni 17,5 million hektarni tashkil etadi, hozirgi vaqtida "O'zbekkarako'l" ga tegishli yaylovlar maydoni 8,2 hektarni tashkil etadi. Shunga qaramay, hozirgi kunda foydalanilayotgan Qorako'l yaylovlarining maydoni 17,0 million hektardan oshadi. Yaylovlar mamlakatning cho'l chorvalari uchun asosiy oziq-ovqat manbai bo'lib, undan yil davomida foydalanish mumkin [6].

Amalda, mamlakatda yaylovlardan foydalanish bilan bog'liq vaziyat quyidagicha:

- ❖ yaylovlar va pichan maydonlaridan tartibsiz foydalanish va tartibga solish;
- ❖ yaylov va pichanzorlardagi oziqabop o'simlik turlarining kamayib, ularning o'rniga oziqabop bo'lмаган о'simliklarning ko'payishi;
- ❖ aholi ixtiyorida bo'lgan qoramol sonining ko'payishi
- ❖ iqlim o'zgarishi
- ❖ qorako'lchilik shirkat xo'jaliklarining ўylovlaridan tizimsiz va maqsadsiz foydalanish;
- ❖ chorvachilik fermalari va cho'pon otarlari kesimida ўylovlarini mol bosh soniga qarab ajratilmasligi va biriktirilmasligi;
- ❖ yaylovarda qum ko'chish maydonlarini kengayishi va bu hududlarda o'simliklar dunyosini o'smayotganligi;



❖ yaylovlarda meliorativ tadbirlarni amalga oshirish ishlarining sustligi va shunga uxshash xolatlarni keltirish mumkin [7].

Mamlakatimizda yaylov va yaylovlardan foydalanish doirasidagi munosabatlarni tashkiliy hamda iqtisodiy jihatdan tartibga solish, yaylov hududlarida ekologiya musaffoligi va bioxilmassallikni saqlanishiga erishish uchun uning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalasi dolzarb vazifa sifatida yuzaga chiqmoqda.

Rivojlangan xorijiy davlatlar, shuningdek Respublikamizga qo'shni davlatlar qonunchiligidagi yaylov va yaylovlardan foydalanish masalasida alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Jumladan, Qirg'iziston Respublikasida jami 9,145 mln hektar yaylovlar mavjud bo'lib, o'rmon fondida 1,2 mln hektar yaylovlar 7 viloyat va 40 tumanga teng taqsimlanmagan. Respublikada yaylovni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi va bo'lim tashkil etildi.

Bo'lim vazifalari yaylov foydalanish sohasida dasturlarni amalga oshirish, yaylovdan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarini ishlab chiqish, yaylovlarni baholash va inventarizatsiya qilish, yaylovlarni monitoring qilish, chegaralarni belgilash va mustahkamlashni metodik ta'minlash, kadastr rejalarini tuzish va huquqlarni ro'yxatga olish, yaylovlarni rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish.

Qirg'izistonda "Yaylovlar to'g'risida"gi qonun 2009 yil 26 yanvarda qabul qilinib, u jami 19 ta moddadan iborat.

Qonunda yaylov bo'yicha mulkiy huquqlar, yaylovlarning chegaralarini belgilash, mahalliy o'zini – o'zi boshqarish organlarining vakolatlari, yaylovdan foydalanuvchilar birlashmalari, qishloq qo'mitalari, yaylovni boshqarish va foydalanishda mahalliy hamjamiyatning rejalar, yaylovdan foydalanishning yillik rejalar, yer solig'ini undirish, yaylov yerlaridan foydalanishda haq to'lash tartibi, yaylovdan foylalanganlik uchun to'lanadigan mablag'lardan foydalanish, xorijiy shaxslarga yaylov yerkarni berish tartibi va boshqa yo'naliishlar bo'yicha maxsus alohida moddalar kiritilgan.

Qirg'iziston Respublikasida mazkur qonunni qabul qilinishi munosabati bilan yaylovlardan foydalanish va boshqarish masalasida ijobjiy yutuqlar qo'lga kiritildi, ammo yaylovlardan foydalanish bilan bog'liq masalalardagi kamchiliklarni huquqiy jihatdan hal qilish imkoniyatlari kengaymoqda.

Turkmanistn Respublikasida jami salkam 39,0 mln hektar yaylov – cho'l hududlari mavjud bo'lib, ularning katta qismi tekislik va yarim pasttekislik hududlarida joylashgan.

Turkmanistonda 2015 yil 8 avgust kuni "Yaylovlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun 7 ta bob, 44 moddadan iborat.

Qonunda Turkmanistonda yaylovlar to'g'risidagi qonunchiliklar, tamoyillar va vazifalar, yaylovga bo'lgan mulkiy huquq, yaylov yerkarni, yaylovlar klassifikatsiyasi, yaylovlarni muhofaza qilish va foydalanishda davlat boshqaruv va nazoratni amalga oshiruvchi organlar, ularining vakolatlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining vakolatlari, yaylovdan foydalanishning huquqlari va majburiyatlari, yaylovdan foydalanuvchilar birlashmalarini tashkil qilish tartibi, yaylovlardan foydalanishni tartibga solish komissiyasini tashkil qilish va boshqa huquqiy tomonlari bayon qilingan.

"Yaylovlar to'g'risida" gi qonunlar mazmunidan quyidagilar kelib chiqadi. Mahalliy hokimiyat organlariga egalik qilish va yaylovlardan foydalanish huquqini davlatning turli xil boshqaruv shakllari bilan davlat tashkilotlarini tashkil etish. Ba'zi respublikalarda davlat va yaylovdan foydalanuvchilarning yaylovlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shma investitsiyalari mavjud, boshqa xo'jaliklarda esa fermer xo'jaliklari faoliyatini molialashtirish faqat yaylovlarning o'zları uchun funktsiyadir. Yaylovlarini yaxshilash uchun davlat byudjeti orqali mahalliy byudjetlarga to'lovlarni yuborish samarasiz. Yaylov chiptalari yaylovlardan foydalanish huquqini ta'minlash vazifasini bajaradi. Iqtisodiy faoliyatni molialashtirish sxemasi juda oddiy va samarali bo'lib, meliorativ tadbirlarni rejalashtirish va iqtisodiyotni to'g'ridan-to'g'ri ularni amalga oshirishga yo'naltirish imkonini beradi.

Tojikiston Respublikasida jami 14,2 mln hektar yer fondi bo'lib, uning 3,5 mln hektari yaylov yerkarni hisoblanadi.

Tojikiston Respublikasida 2013 yil 19 mart kuni "Yaylovlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun 5 ta bob, 30 moddadan iborat.



Qonunda asosan yaylovga davlatning mulkchiligi, yaylovdan foydalanuvchilar uyushmasini tashkil qilish tartibi, mahalliy organlarning vakolatlari, mahalliy davlat organlari huzurida Xalq deputatlari kengashining qaroriga muvofiq Yaylovdan foydalanishni tartibga solish komissiyasini tashkil qilinishi, qisqa muddatli va yillik rejalarни ishlab chiqish, davlat tomonidan yaylovdan foydalanishni tartibga solish va qo'llab - quvvatlash mexanizmlari, va eng asosiysi yaylovlarda geobotanik tadqiqotlarni olib borish kabi moddalar mavjud.

Qozog'iston Respublikasida 188 mln gektar yaylov yerkari mavjud bo'lib, uning 48 mln gektari yoki 26 % tanazzulga uchragan. Qozog'istonda yaylovlardan foydalanish huquqlarining turli xil turlari mavjud, ulardan foydalanishning rasmiy nazorati yo'q.

Qozog'iston Respublikasida "Yaylovlar to'g'risida" gi qonun mamlakat Majlisining tegishli qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilib, shu vaqtgacha bir necha marta muhokama qilingan. Qozog'istonda mazkur qonun yordamida jamoatchilik – muvofiqlashtiruvchi organni tashkil qilinishi ko'zda tutilmoqda. Mazkur qonun – yaylov infratuzilmasining holatini yaxshilash, yaylov yerkarda tanazzullikni oldini olish va yaylov ekotizimining ekologik yaxlitligini saqlashga erishish maqsadiga yo'naltirilgan [8].

Xulosa: Markaziy Osiyo mamlakatlarining xorijiy tajribasi tahliliga ko'ra yaylovlar sohasida shartnoma tizimi asosida yaylovlarga kirish muammolariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qonunchilik bazasi yaylovarning degradatsiyasi va cho'llanish, yaylovlarni himoya qilish va oqilona ishlatish, aylanma yaylovlarni kiritish, yaylovlarni ishlatish, yaylovlarni ekish, o'tlarni ekish orqali yaylovlarni yaxshilash uchun kurashni o'z ichiga oladi.

Ko'rib chiqilgan Markaziy Osiyo mamlakatlarida yaylovlardan foydalanishni boshqarish bo'yicha xulosalar O'zbekistonda yer qonunchiligi va yaylovdan foydalanishni boshqarish tizimini takomillashtirishda e'tiborga olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qirg'iziston Respublikasining "Yaylovlar to'g'risida" gi Qonuni Bishkek, 2009 yil
2. Tojikiston Respublikasining "Yaylovlar to'g'risida" gi Qonuni Dushanbe, 2013 yil
3. Turkmaniston Respublikasining "Yaylovlar to'g'risida"gi Qonuni, Ashxobod, 2015 yil
4. Qozog'iston Respublikasining "Yaylovlar to'g'risida" gi Qonuni Astana, 2017 yil
5. O'zbekiston Respublikasining "Yaylovlar to'g'risida" gi Qonuni, Toshkent, 2018 yil
6. Yarim cho'l (Adir) yaylovlarida oqilona foydalanish va unumidorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar. Qurg'oqli hududlarda xalqaro qishloq xo'jaligi tadqiqotlari markazi (ICARDA), Qorako'l va cho'l ekoliya ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent, 2016.
7. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to'g'risidagi Milliy hisobot 01.01.2023 yil holati
8. Т.Фарманов, Б.Шодиев "Правовые аспекты эффективного использования пастбищ" Международной научно-практической семинар Ташкент 2016 г. 10 ст
9. Ш.К.Нарбаев "Совершенствование организационно-экономических основ формирования системы пастбищепользования "Диссертация на соискание ученой степени доктора (PhD) по экономическим наукам. Ташкент – 2018 г. 139 ст.
10. Khudoyberdiyev Feruz Shamshodovich, Bobojonov Said Utkirovich, & Mukhamadov Kamariddin Mukhtarovich. (2021). Innovative approach to pasture management and productivity improvement. Academicia Globe: Inderscience Research, 2(05), 491–494.
11. Sh, F. (2020). Khudoyberdiyev Measures to prevent degradation of pastoral lands. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 7(3).
12. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtarovich, M. K. (2021). Achieve Effective Results Through Pasture Management. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 3, 9-12.
13. Khudoyberdiyev, F. S. (2020). " Development of Effective Methods for the Use of Pasture Land" International Journal of Advanced Research in Science. Engineering and Technology, 7(3).
14. Khudoyberdiyev, F. S. (2020). " Measures to Prevent Degradation of Pastural Lands" International Journal of Advanced Research in Science. Engineering and Technology, 7(3).



15. Sh, F. (2020). Khudoyberdiyev Development of effective methods for the use of pastureland. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 7(3).
16. Худойбердиев, Ф. Ш. (2019). Научная статья «Улучшение пастбищ, создание новых пастбищ и разработка эффективных методов использования пастбищ». Вестник Хорезмской Академии Мамуна, 17-20.
17. Худойбердиев, Ф. Ш., Шарипова, Ф. К., Бобоҷонов, С. У., & Мухамадов, К. М. (2014). Разработка эффективных методов использования пастбищных земель. The Way of Science, 69.
18. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtorovich, M. K. (2021, May). Innovative approach to rational use of pastures and increasing productivity. In "Online-conferences" platform (pp. 76-78).
19. Shamshodovich, K. F., Akhtamov, S., Muhammadov, K., & Bobojonov, S. (2021). The importance of the cluster system today. International Engineering Journal For Research & Development, 6, 3-3.
20. Худойбердиев, Ф. Ш. (2020). Зарубежный опыт в области пастбищных территорий, возможности и условия их использования в Узбекистане. Землеустройство, кадастр и мониторинг земель, (10), 24-27.
21. Sh, F. (2019). Khudoyberdiyev. Development of methods of pasture improvement, creation of new pastures and effective use of pastures. Bulletin of the Khorezm Academy of Sciences, 2-15.
22. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtorovich, M. K. (2021, June). The importance of pasture lands in the development of the livestock sector in uzbekistan. in "online-conferences" platform (pp. 164-166).